

TOSHKENT VILOYATI ANTIK DAVR YODGORLIKHLARI: QANQA VA SUYURLITEPA YODGORLIKHLARINI O'RGANISH

Yunusov Arman Fayzulla o'g'li

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
muzeishunoslik: muzey menejmenti va madaniy turizm yo'nalishi
2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola Toshkent viloyati hududidagi Qanqa va Suyurlitepa antik yodgorliklarini o'rganishga bag'ishlangan. Arxeologik tadqiqotlar, bu joylarda topilgan materiallar va tarixiy faktlar orqali, Toshkent viloyatining tarixiy va madaniy rivojlanishi haqida o'rganishga qaratilgan. Maqola, ularning joylashuvi, arxeologik topishmalar, tarixiy o'zgarishlar, san'atiy asarlar va tadqiqotchilar tomonidan qo'llaniladigan metodlar to'g'risida ma'lumotlar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: Qadimiy, madaniy, etnik, ekspeditisya, paleolandshaft, planigraf, geofizika.

Mamlakatimiz qadimiy va boy tarixga ega bo'lib, unda madaniy rivojlanishga doir umumtarixiy jarayon bilan birga, faqat yurtimiz o'tmishiga xos xususiyatlari va qonuniyatlar o'z aksini topgan. Yurtimiz hududida saqlanib qolgan qadimiy maskanlar tarixiy-madaniy izchillikni va an'anaviylikni ta'minlovchi muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Hozir yurtimizda besh mingga yaqin arxeologik yodgorlik mavjud bo'lib, ularni zamонавији geofizik, biologik, fizik-kimyoziy texnologiyalarni qo'llagan holda tadqiq etish va arxeologik qazib olish ishlari asosan xorijiy ekspeditsiyalar mutaxassislari ko'magida bajarilmoqda. Mamlakatimiz hududidagi qadimgi davrga oid arxeologik yodgorliklarning aksariyat qismi xom g'isht va paxsadan qurilgan me'moriy inshootlar ekanini inobatga olsak, ularning paleolandshafti va planigrafisini aniqlashda mahalliy o'ziga xos geofizik uskunalar ishlab chiqish zarurati sezilmoqda.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi Qanqa yodgorligida olib borgan arxeologik izlanishlari davomida vohaning o'rta asrlar tarixiga oid yangi ma'lumotlar kashf etildi

Jumladan, XI-XII asrlar bilan davrashtirilgan uzunligi 12 metr, kengligi 6,30 m bo'lgan katta zal topildi. Uning kirish qismidagi poli pishiq g'ishtlar bilan terilgan. Zal yon devorlari qalinligi 1,30 m kenglikda ekani uning mahobatli inshootligidan dalolat beradi. Zal janubiy-g'arbiy burchagida yon devorlari ham pishiq g'isht bilan qoplangan bo'lib, kuchli olov natijasida kuygani bu

yerda yog'ochdan ishlangan peshtoq ham mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Yong'in natijasida peshtoqdan qulab tushgan yirik yog'och qoldiqlari ham aniqlanib, ular saqlanib qolganlari sinchiklab o'rganilganda yuza qismlari o'yma naqshlar bilan bezalgani ma'lum bo'ldi¹

Qazishmalar davomida o'rta asr qurilishlari ostida ibodatxonaga tegishli bo'lgan ulkan inshoot qoldiqlari ochildi. Qanqa yodgorligidan V-VII asrlarga oid devoriy sur'atlar topildi.O'rganilgan ob'yektlarning "Ochiq osmon ostidagi muzey"ga aylantirilishi yangi turizm marshrutini yaratishga xizmat qiladi. Misol sifatida Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanidagi Qanqa yodgorligini ko'rsatib o'tish mumkin. Ushbu yodgorlik Toshkent shahrining eng yirik va qadimiy poytaxt shaharlaridan bo'lib, XI-XII-asrlarga qadar Buyuk ipak yo'lidagi savdo aloqalarida eng muhim shahar sifatida tilga olingan. Xitoy, fors, Yevropa manbalarida tilga olingan bunday yirik shahar o'rganilishi boshlangan.Toshkentdan 70 km janubi-g'arbda, Oqqo'rg'on tумани hududidagi Qadimgi Qanqa shahri yodgorliklari eramizdan oldingi IV – III asrlarga oid bo'lib, XII asrgacha Toshkent vohasi hayotida muhim o'rin tutadi. Shu sababli, Qanqa shahri Chochning eng qadimgi poytaxti deb qaraladi.Yuqoridagi tadqiqotlar 2023-yilda bo'lib o'tdi. Tadqiqotlar, arxeologik izlanishlar ancha yillardan beri davom etib kelmoqda.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektiga A.P. tomonidan 10 mlrd 367 mln 448,3 ming so'm, A.B. tomonidan 2 mlrd 423 mln 520,0 ming so'm, T.B. 1 mlrd 093 mln 950,0 ming so'm miqdorida moddiy zarar yetkazilgan.

. Inshoot Qanqa yodgorligi ilk o'rta asrlarga tegishli ibodatxona sharqiy tarafida joylashgani ushbu yirik qurilish qoldiqlari ibodatxona bilan bevosita bog'liq bo'lishi mumkinligi haqida xulosalar chiqarishga imkon beradi.2023-yilning sentyabr oyи boshida yodgorlik joylashgan yerni sun'iy yo'ldosh orqali kuzatib, so'ng tashrif buyurgan 20 nafar xalqaro mutaxassis Qanqa yodgorligining aholi tomonidan egallab olinib, unga jiddiy zarar yetkazilganiga guvoh bo'lishgan. Bungacha yodgorlikning YUNESKOnung umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilishi kutilayotgan edi.Bu qazishmalar esa 2019 yiliga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi va Tarix institutixodimlari tomonidan Toshkent viloyati, Ohangaron tumani Suyurlitepa yodgorligida 2022-yilning aprel oyidan buyon arxeologik tadqiqotlar olib borilmoqda.Suyurlitepa yodgorligi Ohangaron daryosining chap sohilida,

¹<https://academy.uz/uz/page/word/qanqa-yodgorligida-xi-xii-va-vii-viii-asrlarga-oid-mahobatli-inshoot-qoldiqlari-ochildi>

Qurama tog'larining shimoliy Etagida, bugungi Sanam qishlog'idan 2 km sharqda, Olmaliq shahrini Angren shahri bilan bog'lovchi avtomobil yo'li yoqasida joylashgan.

.Qazishmalar Vag'nze mulkining janubi-sharqiy qismidagi nisbatan balandroq tepalikni ochib o'rganishdan boshlandi. Qazishma 20x20 metr o'lchamli maydonda amalga oshirildi.Tadqiqotlar natijasida rivojlangan o'rta asrlarga kelganda binodan boshqa maqsadlarda foydalangani qayd etildi. Inshoot markaziy xona va unga tutashtirilgan yordamchi xonalardan iborat qilib qurilgani hamda unga yana bir qancha xo'jalik xonalari keyingi davrlarda qo'shilgani yodgorlik rejasida aks etgan. Qazishma maydonida jami 10 ga yaqin xonalar ochib o'rganildi.Arxeologik qazishmalar natijasida bu yerdan Turk xoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar va Mo'g'ullar bosqini davriga oid boy ashyolar, tangalar, sopol idishlar, kamon o'qi uchlari, shisha idishlar, turli xil taqinchoqlar, suyakdan sirlangan va sirlanmagan laganlar, kosalar, xumlar va hokazolar), kamon o'qining uchlari, shisha idishlar, turli xil taqinchoqlar, suyakdan qilingan taroqlar va boshqa ko'plab tarixiy buyumlar topildiki, bularning hammasi ushbu shahar tarixini yoritishda chinakam xazinadir

O'ralardan birida Somoniylar davrida oid (X asr) noyob laganlar ham topildi. Ularning sirtiga oq rang berilib, sirlangan.Laganlardan birida xumo qushiga o'xshab ketadigan qush tasvirlangan bo'lib, u tumshug'ida gul tutib olgan. Ikkala lagan ham somoniylar davrining nodir namunalaridan hisoblanadi. Boshqa laganni ustiga esa arab alifbosining kufiy xatida so'zlar tushirilgan edi.

Xonalardan paxsa blokli platformani o'yib ochilgan jami 5 ta xo'jalik o'ralari aniqlandi. O'ralardan bittasi to'g'ri to'rtburchak, qolganlari esa aylana shaklga ega. Ulardan 20 turdag'i shisha idishlar, shisha laganlar, vazalar, jomlar va tabiblar tomonidan giyoh solish uchun ishlatalgani talqin qilinayotgan kichik, nozik ko'rinishga ega shisha idishlar va hokazolar topildi. Bunday turli-tuman shisha idishlar topilishi bu hududlarda bir vaqtlar shishasozlik yuksak darajaga yetganini tasdiqlaydi.

Tadqiqotlar natijasida, rivojlangan o'rta asrlarga kelganda binodan boshqa maqsadlarda foydalanganligi qayd etildi. Inshoot markaziy xona va unga tutashtirilgan yordamchi xonalardan iborat qilib qurilganligi hamda unga yana bir qancha xo'jalik xonalari keyingi davrlarda qo'shilganligi yodgorlikning rejasida aks etgan. Qazishma maydonida jami 10 ga yaqin xonalar ochib o'rganildi.Yodgorlik hududi juda kengligi bois, uning katta qismi o'z sir-asrorlarining ochilishini kutib turibdi. Yodgorlikda arxeologik tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

2023-yilda “Metallurg” madaniyat saroyida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Milliy Arxeologiya markazi va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati hamkorligida tayyorlangan “Suyurlitepa yodgorligi” ko‘rgazmasi bolib o’tdi.Ushbu ko‘rgazmagaga qazishmalar natijasida topilgan topilmalar ko‘rgazmaga qo‘yildi. Ko‘rgazmada jami bo‘lib 350 ta turli xil arxeologik to‘plamlar o‘rin oldi. Shuningdek ko‘rgazmada 1200 yillik davrni qamrab olgan tarixiy buyumlar ham mavjud edi.

Xulosa qilib aytganda ushbu hududlar yurtimizning eng qadimiy va boy tarixga ega joylaridan. Viloyatdagi arxeologik yodgorliklarni innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda kompleks tadqiq etish nafaqat boy tariximizni o‘rganishga o‘z hissamizni qo’shishimiz darkor.Bu obyektlarga zarar yetkazmazsligimiz kerak ,axir bular tarixdan so’zlaydi.balki yoshlarni arxeologik qazilmalar bilan tanishtirish hamda ochilgan qadimiy me’morlik namunalarini ochiq osmon ostidagi turizm obyektiga aylantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://old.dunyo.info/uz>
2. <https://daryo.uz>
3. <https://academy.uz>
4. <https://www.agmk.uz/>